



## ILM-FAN SOHASIDA OLIMA XOTIN-QIZLARNING TUTGAN O'RNI

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti "Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi" 2-kurs magistranti Mavlonova Sitara Sheraliyevna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilm-fan sohasida mamlakatimizda ayol-qizlarning tutgan o'rni va ahamiyati, ularga yaratilayotgan imkoniytalar, ularning ta'limdagi ulushi hamda jahon miqiyosida bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning ahamiyati haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, ilm-fan, "Olima" uyushmasi, BMT, "Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni", UNESCO, Amerika universitet ayollar uyushmasi, STEM, xalqaro miqiyosda dunyo mamalakatlarida ta'lim sohasida ayollarning ulushi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о роли и значении женщин и девушек в сфере науки в нашей стране, о созданных для них возможностях, их доле в образовании, а также о значении работы, проводимой в этом направлении на мировом уровне.

**Ключевые слова:** Образование, наука, Ассоциация «Алима», ООН, «Международный день женщин и девушек в науке», ЮНЕСКО, Американская ассоциация университетских женщин, STEM, доля женщин в сфере образования в странах мира на международном шкала.

**Abstract:** This article describes the role and importance of women and girls in the field of science in our country, the opportunities created for them, their share in education, and the importance of the work being done in this regard at the world level.



**Keywords:** Education, science, "Alima" Association, UN, "International Day of Women and Girls in Science", UNESCO, American Association of University Women, STEM, the share of women in the field of education in the countries of the world on an international scale.

Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash, jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasida O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 69-maqсадida: xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llabquvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Ma'lumki, 2016-yildan boshlab, har yili 11-fevral kuni BMT qaroriga binoan **"Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni"** sifatida nishonlanadi. Bundan ko'zlangan maqsad, xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilmfandagi salohiyatiga e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. O'zbekiston boshlang'ich ta'limda gender balansiga erishgan bo'lsa-da, ammo hanuzgacha oliy ta'lim sohasida tahsil olayotgan, shuningdek, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida ayollar va erkaklar soni o'rtasida tavofut mavjuddir. O'zbekistonda oliy o'quv yurtiga 2020-2021- o'quv yili kunduzgi ta'lim uchun kirgan xotin-qizlar 260 ming kishini, erkaklar 311,5 ming kishini tashkil etgan. Agarda jahon miqiyosida oladigan bo'lsak UNESCO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo tadqiqotchilarining atigi 30 foizini ayollar tashkil etadi. Universitetlarga kiradigan ayollar soni tobora ko'payib borayotgan bo'lsa-da, ularning kam qismi tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishadi. Masalan, Shvetsiyada ayollar universitet talabalarining ko'p qismini 60 foizini tashkil qiladi, ammo ularning soni universitetdan keyingi ta'lim bosqichlarida kamayadi: aspirantlar orasida ayollar ulushi (49%), olimlar orasida atigi (36%)ni tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqiyosida ilm-fan sohasida ayollarning ulushi Argentina (54,1%), Bolgariya (47,4%), Indoneziya (45,8%) va Portugaliya (43,7%)<sup>14</sup> kabi mamlakatlarda ustunlik qilar ekan boshqa davlatlarga qaraganda. Dunyo miqiyosida olib qarasak, fan, texnika, texnologiya va matematika kabi

<sup>14</sup><https://www.unesco.org/reports/science/2021/en/dataviz/women-share>



aniq fanlar sohasida tadqiqotchi ayollar kamchilikni tashkil qiladi. Masalan, Koreya Respublikasida tadqiqotchilarning atigi 17 foizni, muxandislikda esa 9 foizni ayollar tashkil qiladi.

Bizning mamlakatimizda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarayotgan tadqiqotchi erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tavofut saqlanib qolayotganli kuzatilmoqda. Xususan, 2021-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borgan xotin-qizlar 9 874 nafar, erkaklar 15 347 nafarni tashkil etgan. Ayollar o'rtasida 2011-yilda fan doktorligini olganlar soni 469 nafar, 2021-yilda 606 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, fan nomzodini olganlar soni 2011-yilda 2 867 nafar, 2021-yilga kelib 1 750 nafarni tashkil qilgan. Erkaklar o'rtasida esa 2011-yilda fan doktorligini olganlar soni 1 987 nafar, 2021-yilda 1 876 nafarni tashkil qilgan, fan nomzodini olganlar soni 2011-yilda 6 534 nafar, 2021-yilga kelib 3 812 nafarni tashkil qilgan. Fan, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish sohalari bitiruvchilari orasida ayollar ulushi so'ngi yillarda ortib 2017-yilda 27 foizdan 2020-yilda 30,1 foizga etgan.<sup>15</sup> Albatta bunday natijalarga erishishimizda, ilm-fanda yosh ayol-qizlarimizning tutgan o'rnining foiz jihatidan o'sishida "**Olima**" uyushmasining o'rni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu tashkilot Respublikada irqi, millati, diniy e'tiqodi hamda siyosiy qarashlari, yoshidan qat'iy nazar ilmiy darajasi va unvoni bo'lgan, fanning muayyan sohalarida ilmiy-tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarni o'z atrofiga birlashtirdi. Shuningdek, "Olima" uyushmasi ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan, mamlakat oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ekologik, huquqiy muammolarni hal etishda ko'maklashish uchun ilmiy-tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanayotgan, tinchlik va xavfsizlik manfaatlarida xalqaro insonparvarlik yo'lidagi hamkorlikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan ayollar kuch-g'ayratlarini birlashtirishdan iborat.<sup>16</sup>

Keyingi yillarda "Olima" uyushmasi butun respublika olimi ayollari, yosh tadqiqotchi qizlarni o'z faoliyati dorasiga qamrab oldi. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan hozirgi davrda o'z faoliyatida butun respublika aholisi intellektual salohiyatini yuqori darajaga ko'tarish, uyushma imkoniyatlarini yanada kengaytirish, xotin-qizlarni jahon ilm-fani sahnasiga olib chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratayapti.

<sup>15</sup> <https://gender.stat.uz>

<sup>16</sup> Холбоев С., Иноятова Д ва бошқалар. Миллий университетда кечган ҳаёт музмуни. Тошкент: Mumtoz so'z, 2015. -Б.-79



“Olima” uyushmasi O'zbekistondagi barcha olimalarni jipslashtirib, hamjihatlik va axillik bilan faoliyat yuritishni asosiy shior qilib olgan. Uyushmaning asosiy maqsadlaridan biri respublikada shakllangan ilmiy salohiyatdan foydalangan holda yosh avlodni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, qizlar orasida ushbu g'oyani targ'ib qilib, etakchi va yosh olimalarni ilmiy yutuqlarini respublika va xorijdagi ilmiy markazlarda keng targ'ibot qilish, ularga ilmiy salohiyatini rivojlantirishda ko'maklashish hisoblanadi. Keyingi yillarda uyushma boshqaruvi a'zolari olima ayollarning nafaqat respublika, balki xalqaro maydondagi faoliyatini tashkil qilish, ularning tashabbuslarini qo'llab quvvatlash ishini davom ettirmoqdalar. “Olima” uyushmasi tomonidan o'tkazilgan qator tadbirlarda O'zbekistonda yashayotgan barcha xotin-qizlar, xususan, olimalarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, kasbiy kamolotga erishish, xalqaro aloqalarni takomillashtirish, respublikada olib borilayotgan keng qamrovli ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy islohotlar mohiyatini yoshlar ongiga singdirish bo'yicha maqsadli faoliyat olib borilmoqda, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Yurtimizda boshqaruv sohasida olib borilayotgan amaliy ishlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3755-sonli qarori<sup>17</sup> asosida istiqbolli boshqaruv kadrlarining tizimli asosida tanlab olinishini ta'minlash, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat va boshqa davlat organlari, tashkilotlari tizimida ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borishga ko'maklashish maqsadida har 3 yilda istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlab olish bo'yicha “Taraqqiyot” respublika tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bunda yosh ayol-qizlarimizning ham keng miqiyosdagi ishtiroki haqida ham alohida aytib o'tilgan.

Xotin-qizlarning ta'lim olishiga zarur shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning tutgan o'rmini yanada oshirish ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish xotin-qizlarning ta'limda, ilm-fanda rolini oshirishda qo'llaniladigan choratadbirlar doirasi ancha kengligini ko'rsatdi. Jumladan, YIM yuqori bo'lgan mamlakatlarda elektron navigator platformalarini yaratish, malaka olish dasturlarini to'g'ridan to'g'ri

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3755-sonli qarori //https://lexuz/docs/-3755274



moliyalashtirish va ta'lim to'g'risidagi sertifikatlarni taqdim etish kabi kompleks chora-tadbirlar qo'llanadi. Shuningdek, ko'pgina xorijiy universitetlarda xodimlarning farzandlari uchun bog'chalar tashkil qilingan. Bu olim ayollarga turli ijtimoiy masalalarga chalg'imay, tadqiqot ishini bajarish imkonini beradi. Germaniyada fan va ta'lim sohalarida vaucher usuli keng qo'llaniladi. Tashkilotlar har yili 20 ga yaqin vaucher olishlari mumkin, bu esa xodimlarni, jumladan, ayollarni o'qitish xarajatlarining 50 foizini qoplaydi. Xodimlar uchun-yillik daromadi past bo'lgan xodimlar o'rtasida taqsimlanadigan maxsus talabalar bonuslari ham mavjud. Bundan tashqari, qonun ish vaqtida qo'shimcha ta'lim kurslariga qatnaydiganlarga daromadning to'liq saqlanishini kafolatlaydi.

Shuningdek, Germaniyada 900 dan ortiq xalq universitetlari firma va korxonalar uchun xizmat safarlari va sayohatlar ko'rinishida "buyurtma bo'yicha ta'lim" shaklida kadrlarni qayta tayyorlash kurslari va seminarlarni taklif etadi. Ularda har qanday yoshdagi odam tahsil olishi mumkin. Hatto ishlab turgan odamlar, ishsizlar, oila qurgan ayollar va erkaklar, shuningdek, pensionerlarga yo'naltirilgan alohida kurslar ham mavjud. Finlyandiyada katta yoshdagi ayollar ta'limi rasmiy va norasmiy shakllarda, shuningdek, chet tillarini o'rganish, axborot texnologiyalari, sport va boshqalar bilan bog'liq liberal ta'limni amalga oshiradi. Liberal ta'lim siyosiy partiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan madaniy va diniy tashkilotlar, yozgi universitetlar, xalq oliy maktablari, kattalar ta'lim markazlari, sport mashg'ulotlari markazlari, universitetning uzluksiz ta'lim markazlari, musiqa maktablari kabi ta'lim birlashmalari faoliyat yuritadi. Finlandiyada "ta'lim yutuqlari pasporti" tushunchasi qo'llaniladi, unda kattalar, jumladan katta yoshdagi ayollarning uzluksiz ta'limning barcha natijalari taqdim etiladi. Shvetsiyada rasmiy malaka hujjatini olish bilan bog'liq bo'lmagan xalq ta'limi tajribasi mavjud bo'lib, ushbu maktablarning o'ziga xos xususiyati ma'lum bir o'quv guruhi kontingentining kasbiy va hayotiy 161 tajribasini hisobga olgan holda kursga qatnashuvchilar ishtirokida dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti qo'llaniladi. Shvetsiyada yuz yildan ortiq vaqtdan beri bu an'ana mavjud ya'ni odamlar o'zlari qiziqtirgan ma'ruza va darslarda ishtirok etish, madaniy tadbirlarga borish uchun ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashish imkoniyatiga ega. Singapurda 45 yoshdan oshgan ishchilar, shu jumladan ayollar qayta tayyorlash uchun ishlab turgan joylaridan mablag'lar oladilar va davlat ish beruvchiga xodimni yangi ish



funksiyalari bilan ish joyida ushlab turish orqali qilgan xarajatlarini qoplaydi. Xitoyda ilmiy tadqiqotlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan, top jurnalda e’lon qilgan har bir maqola uchun xitoylik olim hukumatdan 20–30 ming dollargacha mukofot oladi. Shuningdek, Xitoy davlati dunyodagi etakchi ilmiy markazlardan eng nomdor olimlarni mahalliy laboratoriyalar hamda universitetlarga jalb qilgan holda ilmiy kollaboratsiya tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hindistonda xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish maqsadida 1977-yilda “Ayollar kasbiy ta’limi dasturi” ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan. Mazkur loyiha doirasida ayollar uchun eng mos kasblar aniqlanib, joriy etilgan.

Xotin-qizlarni aniq, texnik va tabiiy fanlarda qiziqishlarini orttirish borasida Avstriya tajribasidan misol keltirish mumkin. Xotin-qizlarni aniq fanlarga qiziqtirish uchun, ularga universitetda qisqa muddatli stajirovka o‘tash taklif etiladi, uzoq muddat uyda o‘tirgan va o‘z sohasida ishlamagan bo‘lsa, unda ularga kasblarini o‘zgartirish imkoniyati beriladi. Xorijda ayollarning turli uyushmalari tashabbusi bilan ilm-fan bilan shug‘ullanishga yo‘naltirilgan xotin-qizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash keng yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Amerika universitet ayollari assotsiatsiyasi (AAUW – American Association of University Women) tomonidan STEM – (Science, Technology, Engineering, Mathematics) dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, ta’lim, turarjoy, ta’lim sayohatlari va farzandlarni boqish uchun ayollarga stipendiya va grantlar ajratiladi. 1919-yilda tashkil etilgan (GWI – Graduate Women International) xalqaro oliy ma’lumotli ayollar federatsiyasi ayol olimlarning ilmiy harakatini kuchaytirish uchun grantlar shaklida moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Ayollar geologlari assotsiatsiyasi<sup>18</sup> (AWG – Association for Women Geoscientists) geologiya sohasida malaka oshirish uchun bir qator mukofot va stipendiyalarni taqdim etish orqali ayollarni geografiya fanlarini o‘rganishga jalb qiladi. Tashkilot talabalar va aspirantlar, yosh olimlar va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi 1946-yilda tashkil etilgan Yaponiya universitet ayollari assotsiatsiyasi (JAUW) mamlakatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun fan magistri yoki undan yuqori 162 darajaga ega bo‘lgan ayol olimlarga grantlar taqdim etadi. 2004-yilda AQSHda tashkil etilgan "Schlumberger Foundation Faculty of the Future" dasturi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan ayollarga fan, muhandislik va texnologiya bo‘yicha doktorantura yoki postdoktoranturada o‘qish uchun

<sup>18</sup> <https://ru.unesco.org/>



stipendiyalar taqdim etiladi. Avstriyada fan jamg'armasi dasturi doirasida universitetda tahsil olayotgan ayollarga ilmiy faoliyatlarini davom ettirishlari uchun 6-yilgacha ikki bosqichli moliyalashtirish imkoniyatini ham taklif qiladi. Germaniyada bolali ayollarga ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun maxsus stipendiya (special scholarship) va bolalar uchun enagalar ajratiladi. Bu ham ilm-fanda ularni qo'llab-quvvatlash va keng imkoniyatlar yaratib berish uchundir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi XXI asrda fanning dolzarb masalalaridan biri sifatida jamiyat rivoji ilmiy salohiyati yuqori yosh ayol-qizlar ishtiroki bilan bevosita bog'liqligi haqiqatdir. Yosh ayol-qizlarning ilm-fan sohasida tutgan o'rnining muhimligidan kelib chiqqan holda yosh ayol-qizlarning ta'lim olishga doir intilishlarini qo'llab-quvvatlash, bu boradagi huquqlarini muhofaza qilish va amalga oshirish mexanizimini mustahkamlash hamda butun dunyoda yosh ayol-qizlarning ta'lim olishi borasida yuzaga kelayotgan muammolarni imkon qadar xal qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy dunyoda ayollarning jamiyatdagi rolini faqat onalik va oila mas'uliyati bilan cheklash xatodir. Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham bugungi kunda butun dunyoda ilm-fanga ulkan hissa qo'shayotgan olima, ijodkor yosh ayol-qizlar bor. Bu ayollarning ko'plab kelajak avlodlar uchun turtki bo'ladigan ijobiy yutuqlari ham bor. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ayollarning o'qishi uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular uchun barcha oliy o'quv yurtlari ochiq va ular istalgan mutaxassislikni olish imkoniyatiga ega. Biz yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol, Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalamoqchi bo'lsak, eng avvalo yosh ayol-qizlarning bilimli, har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlariga yanada jiddiy e'tibor qaratishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi P-F60 son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 250 b.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3755-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3755274>.
4. Холбоев С., Иноятова Д ва бошқалар. Миллий университетда кечган ҳаёт музмуни. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015.
5. Инсопов А. А. Development quotient nonprofit organization Uzbekistan on example of the Associations scientist woman’s «Olima» Insopov A. Развитие негосударственных некоммерческих организаций Узбекистана на примере Ассоциации учёных женщин «Олима» //Problems of modern science and education. – С. 34.
6. А.А. Инсопов. Развитие гражданского общества через призму образования и жизнедеятельности некоммерческих организаций // - Минеева, 2016.
7. Stromquist NP. Women and education in Latin America. Lynne Rienner Publishers; 1992.
8. Шафранова ОИ. Образование, общественная и профессиональная деятельность женщин Северного Кавказа во второй половине XIX-начале XX в. Ставропол: СГУ. 2004.
9. Hamdan A. Women and education in Saudi Arabia: Challenges and achievements. International Education Journal. 2005 Mar;6(1):42-64
10. <https://gender.stat.uz>
11. <https://www.unesco.org/reports/science/2021/en/dataviz/women-share>
12. <https://ru.unesco.org/>
13. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education, 2013.